

# TARJIMA MOTIVLARINI SHAKLLANTIRILISHDA ZAMONAVIY INFORMATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.

**Ergashev Ulug'bek Erkinovich.**

**Jizzax davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi.**

**Shodmonqulov Mirjalol Turonovich.**

**Jizzax davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zbek tilining ta'lim sohasida tutgan o'rni, tarjima motivlarini shakllantirishda zamonaviy informatsion texnologiyalarning ahamiyati, bu borada olib borilayotgan ishlar xususida fikrlar bayon etilgan.

**Калит сўзлар:** til, ta'lim, tarjima, jamiyat, texnologiya.

**Annotation:** This article describes the role of the uzbek language in education, the role of modern information technology in the formation of translation motives, and the work being done in this area.

**Keywords:** language, education, translation, society, technology.

Ta'lim jarayonida informatsion texnologiyalardan foydalanish hozirgi davr talabidir. O'qitishning yangicha usullaridan hamda informatsion texnologiyalardan foydalanmasdan turib, o'qituvchi o'z kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatli natijalarni qo'lga kiritmaydi. Lekin bunda ta'limning maqsad va mazmuni, usul va vositalari hamda tashkiliy shakllarini aniq belgilab olish muhimdir. Axborotlar oqimining ko'payib borishi va ta'lim metodlarining rivojlanishi bilan ta'limni asosan an'anaviy usulda tashkil etish tobora qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Informatsion texnologiyalar vositalari o'quv jarayonida muhim bo'lgan harakatlantiruvchi kuchga ega bo'lib, ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlar eshigini ochadi:

- differensial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- teskari aloqa bog'lashi: o'quvchilarning o'zini-o'zi nazorat qilganlari holda xato va kamchiliklarini tuzatib borishi;
- animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va informatsion texnologiyalardan foydalangan holda dars jarayonini tashkil etish;
- o'quvchilarga axborotlarni o'zlashtirishlari uchun ularda ko'nikmalar hosil qilishi va hokazo [3-132]. Shu o'rinda informatsion texnologiyalar motivlarni yuzaga keltiruvchi eng muhim omillardan biridir. Negaki, ma'lumotlarning ko'rgazmaliligi, ya'ni turli xil shakllarda uzatish imkoniyatlarining borligi, animatsiyalardan foydalanish, axborot oluvchilarning yoshi va fiziologik xususiyatlariga mos axborotlarni berib borish o'quvchilarda bilim olishga bo'lgan qiziqishni va ichki harakatlantiruvchi kuchlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi. Bu

borada qilinadigan ishlar mazmuni esa motivni o‘stirishga, uni qo‘ya bilishni o‘rgatishdan iborat.

Axborotlashtirish axborot jarayonlarini ravnaq toptirish vosita va sharoitlarining umumiy jamlanmasi bo‘lib, tegishli texnik bazani yaratish, tashkiliy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy islohotlar bajarishni o‘z ichiga oluvchi jarayon bo‘lib, u ta'lim tizimini texnologiyalashtirishga keng imkoniyatlar eshigini ochadi. Insoniyatning axborot ishlab chiqarish bo‘yicha salohiyatini kuchaytiruvchi zamonaviy texnologiyalar, axborotlashgan jamiyatning intellektual kuch sifatini ham belgilab beradi. Bunday jarayonlar axborotlashtirish sanoatini muntazam ravnaq toptirishini ham ta'minlaydi.

Informatsion texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonini olib borish foydalanuvchilarning tafakkur ko‘nikmalarini va murakkab topshiriqlarning yechimini topish ko‘nikmalarini rivojlantirishning yangi yo‘llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun prinsipial yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi. Informatsion texnologiyalar sinfdagi va darsdan tashqari mustaqil mashg‘ulotlarning yanada qiziqarli bo‘lish, o‘rganiladigan ma'lumotlarning katta oqimini oson o‘zlashtiriladigan qilish imkonini beradi. Informatsion texnologiyalar ta'limning boshqa texnik vositalari bilan solishtirganimizda uning nozikligi, ta'limning turli modellariga sozlash, shuningdek, har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga nisbatan yakka tartibda reaksiya qilish imkoniyati kabi ustun jihatlari mavjud sanaladi.

Bunday vositalardan foydalanish o‘quv jarayonini yanada takomillashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik sifatlarini bag‘ishlash imkonini yaratadi. Informatsion texnologiyalar o‘quvchining xatti-harakatiga darhol javob berish, turli toifadagi o‘quvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtaroq tayyorgarlikka ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun esa yanada qiyinroq va o‘ta qiyin materialga o‘tish imkoniyatini beradi. Bunda yakka tartibda o‘qitishni oson va tabiiy tarzda amalga oshirish imkoniyati tug‘iladi.

Ta'lim berish (mustaqil o‘qishdan farqli o‘laroq) muloqotli hisoblanadi [3-132]. Zamonaviy informatsion texnologiyalar muhitida didaktika, zamonaviy axborot texnologiyalaridan faol foydalanish yo‘li bilan axborotlarni samarali o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv faoliyatining salohiyati, ma'lumotni qabul qilish va o‘zlashtirish qobiliyatlariga chambarchas bog‘liq bo‘lmoqda. Bizning fikrimizcha, uzluksiz o‘quv jarayonlariga informatsion texnologiyalarni tatbiq etishda asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin: - yangi informatsion texnologiyalarni o‘quv jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnika bazasini yaratish; - o‘quv jarayoni uchun zamonaviy informatsion texnologiyalarni loyihalash va qo‘llash; - foydalanuvchilarning zamonaviy informatsion texnologiyalar sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish; -

zamonaviy texnologiyalar negizida ta'lim va tarbiya jarayonlaridagi muvaffaqiyatlarni kafolatlash .

Axborot ta'lim muhitining maqsadi: shaxsning ijodiy tashabbuskorlik qobiliyatini rivojlantirish asosida ta'lum oluvchilarga bilimlarni mustaqil egallash va ularni sifatli o'zlashtirish uchun shart – sharoit yaratish hamda o'qitish natijalarini tahlil qilishni avtomatlashtirishni ta'minlash .

O'qitish jarayoni pedagog, ta'lim oluvchi va o'qitish vositalarining o'zaro ta'siridan iborat [1-135]. Hozirgi zamon kompyuter vositalari va axborot texnologiyalari imkoniyatlari o'qitish vositalariga o'qituvchi va ta'lim oluvchi vazifalarining bir qismini yuklash imkonini beradi. Darslarni informatsion texnologiyalar asosida o'qitish o'qituvchi va ta'lim oluvchilar ishini ancha yengillashtiradi. Xususan, darsda fanlarni kompyuter vositalari asosida o'qitish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- o'qituvchini takrorlanuvchi mehnatdan xalos etadi va uning vaqtini tejaydi;
- yaqqol tasvirlar natijasida o'quvchilarda fazoviy tasavvurlar shakllanadi;
- o'quvchilarning ish tartibini tez o'zlashtirishini ta'minlaydi;
- fanga oid nazariy ma'lumotlar ko'rgazmali vositalar (rangli tasvirlar, ularning fazoviy ko'rinishlari) yordamida tushuntiriladi va natijada talabalarda ilmiy bilishga ehtiyoj ortadi;

Monitorda sodir bo'layotgan hodisalarni o'quvchi ko'rib, eshitib hamda his qilgan holda idrok qilish orqali bilishga intiladi. O'quvchi sezgi organlari yordamida monitorda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni idrok etib, to'liq tushunchaga ega bo'la boshlaydi. Chunki monitorda ularning aniq xususiyatlari aks ettiriladi. U avvalo hissiy bilish yordamida monitordagi hodisa va voqealarni kuzatgan holda bir – biridan alohida holda o'z ongida aks ettiradi. Shu sababli narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'lanishni nazardan chetda qoldiradi. Masalan monitorda biror predmetning yoki hodisaning namoyish etilishi bilan o'quvchi ushbu tasvirlarning mohiyatiga etibor qaratmasligi mumkin. Boshqa hodisalarning yuzaga kelish jarayonlari, kechishi, boshqa predmetlar bilan aloqadorligi kabilar bilan tushuntirilganda, va bir necha bor kuzatilganidan so'ng, hissiy bilishdan aqliy bilishga o'tib, masalaning mohiyatiga e'tibor bera boshlaydi. O'quvchining monitorda sodir bo'layotgan voqea, hodisalarni analiz va sintez qilishi juda ham muhimdir.

Analiz va sintez o'quvchining bilish jarayonini tezlatadi. Analiz – sintez murakkab ob'ektlarni oddiy elementlarga, muhim va nomuhimlarga, voqea va hodisalarni turkumlarga ajratish shartlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, namoyish qilinayotgan material qanchalik oson, tushunarli bo'lmasin, hayot bilan uzviy bog'lab tushuntirilmas ekan, materialni esda saqlab qolish va o'quvchilarning bilishga bo'lgan ehtiyojini oshirishga xizmat qilmasligi mumkin.

Ta'lim berishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, samarali yondashuvlarni ishlab chiqish, ta'lim berishning ilg'or uslublarini joriy etish orqali o'sib kelayotgan yosh avlodni jahon sivilizatsiyasi yutuqlari bilan yaqindan tanishtirish, salohiyatli mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlarini ta'minlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Axborot Texnologiyalari dasturi, diplomga ega talabalarga, turli xil tashkilotlarda ish hayotini boshlash uchun kuchli poydevor yaratib beradi. Har bir talaba mustaqil fikrga ega, o'ziga ishonchi kuchli, biznes va boshqaruv haqida batafsil ma'lumotga ega, o'zgartirish kiritish uchun moslashuvchan ko'nikmalarni hosil qila olishi kerak.

Asrlar davomida yig'ilgan ilm-fan xazinasini bugungi yosh avlodga o'rgatish, ularni dunyodagi ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiya va axborot tizimlari yordamida jahon standartlariga to'g'ri keladigan mutaxassis kadrlar qilib tayyorlash bugungi davrning dolzarb vazifalaridan biriga aylandi. Hozirgi kunning asosiy talablaridan yana biri, o'quv jarayonini to'liq kompyuter tarmoqlaridan foydalangan holda olib borishdir. Buning uchun kompyuter tarmoqlari, uni tashkil etuvchilari, fandagi o'rni nimalardan iborat, internet tizimi nima va o'qitishda xamda o'quv jarayonida foydalanishda nimalarga e'tibor bermoq kerak degan savollarga javob berish maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Hasanboev J. To'raqulov X. Haydarov M. Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – T.: Fan va texnologiya, 2008. B.136.
2. Mavlonova R. Arabova M. Salohiddinova G'. Pedagogik texnologiya. – T.: Fan, 2008. B.123.
3. Yo'ldosheva J. Usmonova S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008. B.132.